



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-noyabr

660-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash tartib-taomillari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida” 2024-yil 31-oktabrdagi 725-son qarori ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash tartib-taomillari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida” 2024-yil 31-oktabrdagi 725-son hamda viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 544-6-0-Q/24-son qarori ijrosini Mingbuloq tumanida ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash tartib-taomillari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida” 2024-yil 31-oktabrdagi 725-son hamda viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 544-6-0-Q/24-son qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga 1- ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilganligi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalashni maxsus elektron tizim orqali rasmiylashtirishi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanish uchun yuridik shaxslarga beriladigan litsenziya talablarini belgilovchi pasportni tasdiqlashi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ba'zi qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishi;

Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kirishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**